




MODERNIST PRINCIPLES IN MEHRNUSH MAZOURI'S SHORT STORY "A STRANGER IN THE HOUSE"

Saida Yusupova

4th-year student

School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

O. Turdiyeva

Doctor of Philological Sciences

Associate Professor at the School of Iranian and Afghan Studies

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Short story writing, Iran, modernism, Mehrnush Mazorei, realism.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article explores the emergence and development of modernism in Iranian literature. It also presents a plot analysis of the modernist short story "A Stranger in the House" by one of Iran's female writers, Mehrnush Mazorei.

MEHRNUSH MAZOREINING "XONAMDAGI BEGONA" HIKOYASIDA MODERNISTIK TAMOYILLAR

Saida Yusupova

4-kurs talabasi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti

TDSHU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Hikoyanavislik, Eron, modernizm, Mehrnush Mazorei, realizm.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron adabiyotida modernizmning paydo bo'lishi va shakllanishi masalalari ochib beriladi.

Shuningdek, Eronning ayol yozuvchilaridan biri Mehrnush Mazoreining “Xonamdagi begona” modernistik hikoyasining syujet tahlili yoritiladi.

МОДЕРНИСТСКИЕ ПРИНЦИПЫ В РАССКАЗЕ МЕХРНУШ МАЗУРИ «ЧУЖОЙ В ДОМЕ»

Саида Юсупова

Студентка 4-го курса

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

О. Турдиева

доктор филологических наук

доцент Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Рассказ, Иран, модернизм, Мехрнуш Мазуреи, реализм.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы возникновения и формирования модернизма в иранской литературе. Также проводится сюжетный анализ модернистского рассказа «Чужой в доме» одной из иранских писательниц — Мехрнуш Мазуреи.

Hozirgi kunda Eron hikoyanavisligida modernistik hikoyalar va romanlar ommalashgan bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Bunday hikoyalarni bir o‘qishda tushunish qiyin. Ammo ijodkorlarning badiiy saviyasi, dunyoqarashi, o‘quvchiga turli unsurlar orqali modernistik hikoyaning mazmunini yetkazib bera olish mahoratlarisizilarli darajada oshganiga guvoh bo‘lish mumkin. Ingliz manbaalarida keltirilishicha, modernizm Eronga 1920-yillardan boshlab kirib kelgan. Modernizm san’atning boshqa sohalari kabi adabiyot sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Masalan Eron adabiyotida ayollar adibalardan Roziya Tujjor, Vajihe Somoniy, Tohere Alaviy, Mehrnush Mazorei kabi ijodkorlar Eron hikoyachiligida modernistik hikoyalar yaratishda o‘z o‘rinlariga ega bo‘ldilar.

Modernistik uslubda hikoyalar yaratgan adibalardan biri Mehrush Mazoreidir. Mehrush Mazorei 1951-yilda Tehronda tug‘ilgan, ammo bolaligini va o‘smirlik yillarini Sheroz hamda Eron janubidagi port shaharlarida o‘tkazgan. Bakalavr bosqichini tug‘ilgan shahri Tehronda tamomlagan. U 1979-yilda (1358 hijriy-shamsiy) tahsilini davom ettirish maqsadida AQShga ketgan va hozirda Los-Anjelesda yashaydi.

1991-yilda u Los-Anjelesda do‘stlaridan biri bilan birgalikda "Forough" adabiy choraklik jurnalini tashkil etdi. Ushbu nashr ayollar adabiyotini tanishtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, 1993-yilgacha nashr etilgan. Aynan shu yillarda u Dario Fo (Italiyalik dramaturg, aktyor, teatr rejissori

)ning pyesalaridan tanlab tarjima qilib, ularni "Bir ayol, yolg'iz" nomi bilan chop ettirdi. U kompyuter dasturiy ta'minot tizimlarini ishlab chiqish va o'rnatish bo'yicha xalqaro mutaxassis va maslahatchi hisoblanadi.

Mehrnush ayollar va bolalar huquqlari bilan bog'liq harakatlarning faol himoyachilaridan biri bo'lib, Janubiy Kaliforniyadagi ayollar jamiyatida faol ishtirok etadi. U, shuningdek, 1992-yilda Los-Anjelesda tashkil etilgan va hozirga qadar faoliyat yuritib kelayotgan "Shanba daftarlari" adabiy guruhining asoschilaridan biridir. U hozirgacha quyidagi uchta hikoyalar to'plamini nashr etgan va uning ushbu chop etilgan asarlari Aqsh, Kanada, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlarda tarjima qilingan. "Nur bo'laklari" (1994), "Men va singlim Klara" (1998), "Kulrang" (2002). Shuningdek, u 2003-yilda o'zining ikki kitobidan tanlangan hikoyalarni Eronning o'zida "Xonamdagi begona" (asl nomi "To'shagimdagi begona") nomi bilan chop ettirgan.

2008-yilda uning "Madam X" hikoyalar to'plami Shvetsiyadagi Baran nashriyoti tomonidan nashr etildi. "Mino inqilobi" uning ingliz tilida yozilgan birinchi romani bo'lib, 2015-yilda chop etilgan. Mehrush Mazoreining qalamiga mansub "غريبه اه در اتاق من" – "Xonamdagi begona" hikoyasi 1992 yilda dunyo yuzini ko'rgan.

Hikoyaning bosh g'oyasi – inson o'zini kechira bilishi masalasi hisoblanadi.

Bir odam ertalab uyqudan turib ko'zlarini ochganda, uning ko'zlari nogahon karavotidagi begona insonga tushib qoladi. U juda qo'rqib ketadi. Qo'rqqanidan qisqa-qisqa nafas oladi. Harakat qilib xonasidan chiqib ketishga urinadi, ammo urinishi befoyda bo'ladi. Boshqa yo'lini topish uchun harakat qiladi. Deraza yoniga borganida tashqarida izg'irin sovuq bilan qor zarralarini ko'radi. Dovulning ovozi shovqinli, qor zarralari esa tashqaridan kirib, xonani to'ldirardi. Shoshib derazaning orqasiga o'zini otadi. Va xonaning boshqa burchagiga borib o'tiradi. Iloji boricha orqa tarafi bilan xonaning burchagiga tiqilib yashirinishga harakat qiladi. Butun tanasi qo'rquvdan qaltirab titraydi. Telefonga ko'zi tushib qoladi. Telefon haligi begona odamga yaqin joyda joylashgan edi. O'sha begona odam osoyishta uxlab, choyshabga o'ranib yotardi. O'zini qayta-qayta karavot tarafga borishga majburlab, nihoyat telefonni oladi. Tezda yana xonaning burchagiga borib o'tirib oladi. Kingadur telefon qilib, xonasida begona odam borligini aytadi. Telefondagi inson ham o'sha begonaning kimligini so'raydi. Qahramonimiz ham u begonani tanimasligini aytadi. Telefondagi insondan uni kimligini bilish uchun unga yana bir marotaba qarab kimligini aniqlashlikni maslahat beradi. Xona egasi trubkani yerga qo'yib begonaga qaraydi, begona ham ayni damda ko'zlarini ochib xona egasiga qaraydi. Xona egasi qo'rqib ketadi, telefondagi chaqiriqdan o'ziga kelib telefonga javob berayotganda, begona odam xona egasiga kulib qarab, yelkasiga qo'lini qo'yadi. Shu bilan hikoya tugaydi.

Hikoyadagi xona asli – insonning ong osti ramzdir. Xonadagi begona odam esa insonning asli, o'zligidir. Odatda inson agar xatolikka yo'l qo'ysa vijdon azobiga yo'liqadi va o'zini ayblaydi. Atrof-

muhit kechirishi mumkin, ammo uning o'z o'zini kechira olmaydi. Asar qahramoni xonasidagi o'sha begona odam – aslida uning o'zligi edi. Hikoya qahramoni ham katta ehtimol bilan vijdonini oldida xato qilib qo'ygan. Natijada xonadagi, ya'ni ongi ostidagi begona bo'lmish o'zligidan shu darajada uyaladi yoki qo'rqadi, oxir-oqibat o'zligini taniyolmay qoladi. Hikoyada yana bir atrofni tasvirlaydigan jumalardan:

به طرف پنجره رفتم. آن را به سرعت باز کردم. از بیرون توفان غوغا می کرد. دانه های درشت برف همراه با باد به درون اتاق پرتاب می شد.

“Derazani oldiga bordim. Uni tezlik bilan ochdim. Tashqaridan bo‘ronni shovqin solardi. Qor zarralari bilan shamol birgalikda xonani to‘ldirardi”.

Ushbu parchada adiba insonning ichki dunyosi xotirjamlikda, sakinatda bo‘lmasa uning tashqi atrofi ham unga tinchlik bermaydi demoqchi.

Asardagi insoniy konflikt aks ettiriladi, ya'ni inson o'zligi bilan konfliktga borib qoldi. Ichki dunyosida o'ziga nisbatan kechirim, rahm-shavqat bo'lmaganligi uchun tashqi omil uni xonasiga kirib bezovta qila oldi. Inson tashqi omilga tayyor bo'lishi uchun avval o'zligini, ichki dunyosini tarbiyalashi va hotirjam bo'lishi kerak. Qahramon bir necha bor asar davomida o'zligi bilan yuzlashishga harakat qiladi, ammo qayta-qayta qo'rqaveradi. Shu darajada qo'rqadi-ki, go'yoki u qilib qo'ygan xatosi tufayli vijdoni bilan yuzlasha olmaydi. Muallif asar qahramonini telefon orqali tanishidan yordam so'rashini quyidagicha tasvirlaydi:

چشم به تلفن افتاد که در فاصله کنار تخت قرار داشت. خودم را چهار دست و پا به آن سوی تخت کشاندم. تلفن را با سرعت از روی میز قاپ زدم و در کنج اتاق نشستم. گوشی را آرامی برداشتم و با انگشت هایی که به سختی حرکت می کردند شماره ای گرفتم. صدای خشنی از آن طرف تلفن جواب داد. دهانم را به گوشی نزدیک کردم و خیلی آهسته گفتم:

یه غریبه توی رختخواب منه.

بیخشید، صداتون نمی رسانه. می شه بلندتر صحبت کنید.

نمی تونم. ممکن از خواب بیره -

این آقا کیه؟-

نمی دونم. وقتی چشممو باز کردم دیدم توی رختخواب -

مطمین که نمی شناسیدش؟ -

“Ko‘zim telefonga tushdi. U karavot yaqinida edi. O‘zimni to‘rt oyoq qo‘llab karavot oldiga yetib borishga majburladim. Telefonni tezlik bilan stol ustidan oldim. Va xona chekkasifa o‘tirdim. Go‘shakni sekinlik bilan oldim va qiyinchilik bilan harakat qildim. Raqamni terdim. Qo‘pol ovoz telefon tarafdin eshitildi va qulog‘imni telefonga yaqinlashtirdim va sekin astalik bilan dedim.

-Xonamda qandaydir begona odam bor

-Kechirasiz, ovozingiz yaxshi eshitilmayapti. Balandroq gapiring

-Balandroq gapira olmayman, u uyg‘onib ketishi mumkin.

-U kishi kim?

- Bilmayman, ko‘zlarimni ochganimda karavotimda yotgan edi.

-Uni tanimasligingizga ishonchingiz komilmi?”

Yuqoridagi misoldan shunday talqin qilish mumkinki, inson qilgan xatosi tufayli atrofdan taskin topishga, yordam so‘rashga uringan. Qahramon vijdoni bilan yuzlashishga shunchalar qo‘rqganidan hatto uni uyg‘otishga ham qo‘rqadi. O‘zlik bilan yuzlashishga qo‘rqsa-da, o‘zligini kechirishga imkon qidirib go‘shakni olib yordam so‘raydi.

Asardagi kulminatsiya qismi uning yakunida. Telefon ortidagi odam qahramonga yaxshi maslahat beradi:

- “Could you take a look at him and tell me if you have seen him before?”

“Unga yana bir bor qaray olasizmi? Uni avval biron joyda ko‘rganmisiz yoki yo‘qmi? Unga yaxshilab qaradingizmi?”

Telefon ortidagi shaxs katta ehtimol bilan qahramonning yaqin kishisi yoki psixologi bo‘lishi mumkin, chunki u inson asar qahramoniga muammoga tik qarash lozimligini uqtirdi va shu yo‘l bilan qahramonda o‘ziga nisbatan ishonch hissini uyg‘otdi. Qahramon natijada o‘zligi bilan yuzlasha oldi. Hikoya oxirida o‘sha begona odam uni yelkasiga qo‘lini qo‘yib jilmayib qaradi. Bu esa qahramon o‘zini kechirishni boshlaganidan darak beradi. O‘zini kechirishni boshlagani uchun uning o‘zligi ham undan xursand bo‘lib, asta-sekinlik bilan xotirjam bo‘la boshlaganidan dalolat.

Hikoyaning yechimi ham aynan shu qismda berilgan. Ya’ni inson xato qilganidan ketin uni tan olib, vijdoni, o‘zligi bilan yuzlashib, o‘zini kechira olishi lozim ekanini ko‘rsatib bergan. Shundagina u bunday stress holatlardan chiqib keta olishi va hayotining keyingi etaplariga dadil qadam tashlay olishiga ramziy ma’nolar bilan ochib bergan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, modernistik hikoyalar inson dunyoqarashi mahsuli bo‘lib, bu kabi asarlarda yozuvchining tafakkur o‘yinlari, subyektivligining yaqqol ustunligi seziladi. Mehrnush Mazoreining e’tiborga sazovor jihatlari shundaki, u oddiy kundalik voqelikni bayon qilish orqali mahorat bilan inson ichki olamiga kirib bora oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Модернизм. Сборник.-М.: Искусство, 1987
2. Гассет Х.О. Дегуманизация искусства. -М.: Радуга, 1991
3. Iraniyat. Journal of Iranian studies.; vol.2 No.2/2018
- 4 دکتر حسین پاینده. داستان کوتاه در ایران (دبستان های مدرن). (چاپ چهارم). تهران 1399